

Date: 9<sup>th</sup> April-2026

JAMIYATNI RIVOJLANTIRISHDA ISLOMIY QADRIYATLAR  
MODERNIZATSIYASI

Usmonova Shaxnozaxon Erkinjonovna

TDYU huzuridagi Namangan viloyati  
akademik litseyi Tillar kafedrasida yetakchi o'qituvchisi,  
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
e-mail: [zafarbekismatov@gmail.com](mailto:zafarbekismatov@gmail.com)

Tel: +99899 728 05 58

Abdumajidova Sarvinoz Abdumajid qizi

TDYU huzuridagi Namangan akademik litseyi  
2-kurs 205-guruh o'quvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada islomning an'anaviy qadriyatlari fuqarolik dunyosi va davlatning tarixiy rivojlanishi uchun muhim element sifatida O'zbekistonda jamiyatni yuksaltirish istiqbollari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** islom, huquqiy subyekt, jamiyat tarixiy taraqqiyoti, diniy qadriyatlar, huquqiy asos.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются этапы формирования исламских ценностей и их модернизация. На примерах показано, что в Новом Узбекистане большинство этих ценностей совместимы с современными правовыми системами и не противоречат принципам законодательства Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** ислам, модернизация, концепция, естественная тенденция, социальная группа, модель, современная правовая система.

**Annotation.** This article discusses the stages of the formation of Islamic values and their modernization. It demonstrates, with examples, that in New Uzbekistan most of these values are compatible with modern legal systems and do not contradict the principles of the legislation of Uzbekistan.

**Keywords:** islam, modernization, concept, natural tendency, social group, model, modern legal system.

Islomiy qadriyatlar modernizatsiyasi jamiyatni rivojlantirishning muhim aspekti hisoblanadi. Bu islomiy tashkilotlar va jamoatlar o'rtasida muvofiqlashish va o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon islomiy qadriyatlar va tatbiqlari bilan munosabatda modernizatsiya va yangiliklarni qabul qilishga imkon beradi. Islomiy qadriyatlar modernizatsiyasining muhim aspektlaridan biri, Islomning zamonaviy dunyoga moslashuvchanligini ta'minlashdir. Bu jarayon Islom dinini milliy madaniyatlarga moslashuvchan bo'lib, ularni yangi zamonning talablari bilan to'g'ridan to'g'ri muvofiqlashtiradi. Boshqa bir muhim aspekt jamiyatdagi insonparvarlik mazmunini oshirishdir. Islom dini yuqori insonparvarlik mazmuni bilan bog'liq bo'lib, bu esa jamiyatdagi insonparvarlikning rivojlanishi uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratadi. Bu shart-sharoitlarning bir qismi esa jamiyatda insonparvarlikni oshirishni ta'minlashdir.



Date: 9<sup>th</sup> April-2026

Islomiy qadriyatlar modernizatsiyasi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ham ta'minlaydi. Bu, Islomning iqtisodiy prinsiplariga muvofiq iqtisodiy tizimlarning yaratilishiga olib keladi. Bu tizimlarning asosiy maqsadi esa insonlar orasida adolat va tenglikni ta'minlashdir. Bundan tashqari, Islom dinining amaliyoti ham modernizatsiya jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu amaliyotlar jamiyatdagi tadbirlardan foydalanib, ularga moslashuvchan bo'lib, jamiyatning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Jamiyatdagi insonparvarlik, iqtisodiy-iqtisodiy rivojlanishi va Islom dinida modernizatsiya jarayoni muhim va qarorli aspektlardir. Islomiy qadriyatlar modernizatsiyasi bu jarayonlarni o'z ichiga oladi va jamiyating rivojlanishini ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Davlat hokimiyati va uning boshqaruv tizimini rivojlantirish muammosi islomda asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Bu zamonaviy musulmon jamiyatlarida islohotlar va demokratiya, milliy hamda diniy o'ziga xosliklarning an'anaviy qadriyatlari bilan bevosita bog'liqligidir. An'anaviy jamiyatlarda yangi demokratik usullar va boshqaruv shakllariga o'tish aksariyat musulmon davlatlarida sekin va og'riqli kechgan. Bunday jamiyatlarda aholining an'anaviy fikrlash va mentalitetning o'ziga xosligi g'arb kishisi kabi tezda o'zgarib ketmaydi. Biroq xohlaymizmi yo'qmi, globallashayotgan dunyoda bu jarayonlar tobora kuchayib boradi va ijtimoiy jihatdan qaytarilmasdir. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, hozir mintaqaning globallashuv jarayoniga qo'shilish darajasini belgilaydigan yangi tendensiyalar paydo bo'lmoqda. Ammo ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar darajasidan qat'i nazar aholining diniy e'tiqodlari ustun bo'lgan ma'naviy komponentning ta'siri o'zgarmaydi. Chunki islom ko'p jihatdan madaniyat, urf-odatlar, turmush tarzini belgilab kelgan va eng muhimi, mintaqa aholisining ko'p asrluk an'anaviy o'zini o'zi boshqarish amaliyoti islomiy hurfikrlilik bilan mustahkam bog'langan. Shu boisdan ham bugungi kunda uning ahamiyati ayniqsa o'sib bormoqda, bu demokratlashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va kengaytirish jarayonlarining shakllari va boshqa jihatlarida, masalan, nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan, diniy xayriya jamiyatlarining o'sishi orqali namoyon bo'lmoqda.

Avloddan avlodga o'tayotgan islom dinining ma'naviy-axloqiy asoslari ta'siri ostida nafaqat madaniy va tarixiy tafakkur shakllanadi, balki yangi turdagi siyosiy tafakkur ham shakllandi, bu esa fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishga yordam berdi. Bugungi kunda musulmon mamlakatlarida, shu jumladan, O'rta Sharqda kuzatilayotgan mavjud rejimni o'zgartirish variantlari, odatda o'ziga xos modelga aylanmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad – hokimiyatning an'anaviy asoslari va uzluksizligini saqlab qolish bilan birga zamonaviy boshqaruv shakllariga o'tishdir. Hozirgi zamonaviy musulmon dunyosining ko'plab davlatlarida demokratik va siyosiy hokimiyat mexanizmlariga amal qilishga intilish ortmoqda. Ularning siyosiy tizimi asta-sekin plyuralistik modelga asoslanib amalga oshirilmoqda. Davlatning mustaqil ijtimoiy guruhlarini boshqarish imkoniyatlari chegaralanmoqda va fuqarolarning faol, ixtiyoriy ravishda siyosiy jarayonlardagi ishtiroki faollashishi kuzatilmoqda. Shunga qaramay ushbu mamlakatlarda bu jarayonlar notekis va ancha og'riqli, tabiiyki, avvalgi diniy qadriyatlarning yangi tiklanishi yoki moslashuvi bilan bog'liq holda davom etayotganini kuzatish mumkin.



Date: 9<sup>th</sup> April-2026

Ushbu hodisalar ko'p asrlar davomida jamoat ongini shakllantirgan islom an'analari, shariat me'yorlari saqlanib qolishi bilan bog'liqdir.

Modernizatsiya tushunchasining o'ziga xos xususiyatlari, avvalo, murakkablik (madaniyat, san'at, siyosat, iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlar bir vaqtning o'zida o'zgaradi), inqilobiy (bir zumda sifatli sakrash), universallik (farqlar, modernizatsiya usullari minimal) va algoritmlilik (sabab-oqibat aloqalarining bashorat qilinishi) kabi ma'no-mazmun kasb etadi. Ushbu holatlar taklif qilinayotgan tuzilmalarning spekyativligi va ko'proq g'arb tajribasiga tayanishidan kelib chiqadi. Ayrim tadqiqotchilarning g'arblashtirish va modernizatsiya qilish jarayonlarini sinonim sifatida ko'rish holatlari ham mavjud bo'lib, aslida bu xato yondashuvdir. Taniqli olim D. Ruesheyer qisman siyosiy modernizatsiya qilish konsepsiyasida o'zgarishlar murakkabligini rad etadi. Uning ta'kidlashicha, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ijtimoiy-madaniy qadriyatlar o'zgarishi mumkin va jamiyat o'zining asosiy ko'rsatkichlari jihatidan qanchalik bir xil bo'lsa, uni modernizatsiya qilish uchun shuncha ko'p resurslar talab qilinadi va shunchalik og'ir xatarlar unga hamroh bo'ladi.

Hozirga kunga kelib modernizatsiyaning ko'p qatorli modeli paydo bo'lishi bilan demokratiyaning siyosiy o'zgarishlar jarayonida ilgari beqiyos rol o'ynashi shubha ostiga olinmoqda. Shunday qilib haqiqat siyosiy va ijtimoiy modernizatsiya nazariyasi rivojlanishining dastlabki bosqichida taklif qilingan modellarga qaraganda ancha murakkab bo'lib chiqdi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi farq, tashqi siyosiy omillarning o'ziga xos xususiyati XX asrning 60-yillari oxirlaridan boshlab olimlar o'rganayotgan modernizatsiya ob'ektlari geografiyasining kengayishiga sabab bo'ldi. Siyosiy jarayonlar ularning ijtimoiy-madaniy sharoitlarini inobatga olgan holda tahlil etila boshlandi. Milliy urf-odatlarini hisobga olmasdan rivojlanish uzoq muddatli istiqbolda xavfli hisoblanadi.

An'anaviy va modernizatsiya qilingan me'yorlarning ziddiyatli potensialiga ta'sir qiluvchi real o'zgarishlar va omillar qarama-qarshiligi va nomuvofiqligini tahlil qilish an'anasi mavjud. Bu esa jamiyat taraqqiyotida siyosiy va diniy elitalarning rolini chuqur ko'rib chiqishni talab qildi. Siyosiy modernizatsiya davri ijtimoiy-iqtisodiy resurslarni safarbar qilishni, ma'muriy hokimiyatning qat'iyatligini, ushbu hudud aholisining ko'pchiligidan tushunishni va qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Shu boisdan ham islomni modernizatsiyalash tarafdorlari yoshlarni axloqiy tarbiyalash bo'yicha ishlarni milliy tiklanish jarayonida muhim shart deb biladilar. Bu ularning ongida ma'lum fazilatlarni shakllantirishni nazarda tutadi. Faqatgina odamlar ma'naviyatini tiklash yo'lida jamiyat ravnaqi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish mumkinligi, har bir inson o'zini-o'zi rivojlantirishga intilishi kerakligi, har bir shaxs jamiyat manfaatlariga ongli ravishda va erkin itoat qilishi shu bilan birga islom dini odamlarning real turmush tarzi ekanligini anglab yetmog'i lozim.

Darhaqiqat, mustaqil davlatni rivojlantirish va mustahkamlash uchun har bir musulmon o'zini vatanparvar deb bilishi va jamiyatda hamjihatlik hukm surishi uchun kerakli ishlarni qilishi zarur hisoblanadi. Ma'lumki, islomda qonunlarga bo'ysunish va ular baham ko'rgan qadriyatlarni hurmat qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki ularning



Date: 9<sup>th</sup> April-2026

aksariyati zamonaviy huquqiy tizimlarga mos keladi va O'zbekiston qonunchiligi tamoyillariga zid emas.

Ijtimoiy taraqqiyotning zamonaviy bosqichi fenomeni islom qadriyatlarini tiklash va keng tarqatish jarayoni bilan alohida ajralib turadi. Shunga o'xshash tendensiyalar Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham yuz bermoqda, ular ko'p asrlik islom sivilizatsiyasi tarixi bilan bog'liqdir. Davlat suverenitetining qo'lga kiritilishi Markaziy Osiyo mamlakatlarida, xususan, O'zbekistonda musulmon qadriyatlarini tiklashning yangi bosqichini boshlab berdi. Ma'lumki, O'zbekiston dunyo hamjamiyatiga asosan islom dini ta'siri ostida shakllangan madaniy va intellektual an'anaviy qadriyatlari bilan keng tanilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Hozirgi kunda O'zbekistonimizning kitob fondlarida 100 mingdan ziyod qo'lyozma asarlar saqlanmoqda. Afsuski, bu nodir kitoblar hali to'liq o'rganilmagan, ular olimlar va o'z o'quvchilarini kutib turibdi. Ushbu noyob asarlarda bugungi davr o'rta qo'yayotgan juda ko'p dolzarb muammolarga javob topish mumkin. Xususan, Islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib beradigan, barcha odamlarni ezgulik, mehr-oqibat va hamjihatlik yo'lida birlashishga da'vat etadigan teran ma'noli fikr va g'oyalar bugun ham o'z qimmatini va ahamiyatini yo'qotgan emas. Lekin biz ana shunday noyob meros vorislari, shunday boylik egalari bo'la turib, ularni har tomonlama o'qish-o'rganish, xalqimiz, avvalo, unib o'sib kelayotgan yoshlarimizga, jahon hamjamiyatiga yetkazish bo'yicha yetarli ish qilmaganimizni ham ochiq tan olish kerak».<sup>17</sup>

Islom bugungi kunga kelib sobiq postsovet mamlakatlarining aksariyat mintaqalarida keng tarqalgan din sifatida ma'naviy-axloqiy, milliy va islomiy qadriyatlari bilan inson, uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'ldirib keldi.

«Sobiq Ittifoqdagi hukmron kommunistik partiyaning yuqori qismi diniy jamoalarni xalqlarning ongi uchun kurashda o'zlarining raqobatchilari deb bilgan va butun tarix davomida dinni buzish, qolgan ziyoli musulmon insonlarni yo'q qilish va bo'ysundirish uchun eng shafqatsiz choralarni ko'rgan. Yillar davomida o'n minglab islom ziyolilari qatag'on qilindi. Minglab masjidlar va yuzlab madrasalar tugatildi, ularning ko'pchiligining binolari xalqimiz va insoniyat sivilizatsiyasi uchun me'moriy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan. Din sun'iy ravishda mafkuraviy kurashning keskin jabhalaridan biriga aylandi».<sup>18</sup> Xuddi shu «sabablarga ko'ra Markaziy Osiyodagi sobiq Sovet Ittifoqi respublikalarida, islom ta'limiga ta'qiq qo'yilganida, juda ko'p sonli yuqori ma'lumotli islom o'qituvchilari bo'lishi mumkin emas edi. Ammo har xil hurofotlar gullab-yashnadi, ba'zida reaksiya, ularning tashuvchilari bugun ba'zida eng yuqori haqiqatga da'vo bilan chiqib, uni butun aholiga yuklaydi va odamlar taqdirini tasarruf etish huquqini beradi».<sup>19</sup> Garchi sotsialistik tuzum davrida O'zbekistonda diniy binolar soni keskin kamaygan bo'lsa-da (butun ulkan respublikada atiga 89 ta masjid faoliyat olib borgan), islom an'analari o'zbek xalqi dunyoqarashining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib qolaverdi.

<sup>17</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи газетаси, 2017 йил 23 декабрь.

<sup>18</sup> Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. 6- том –Б. 56.

<sup>19</sup> Ўша ерда.



Date: 9<sup>th</sup> April-2026



Ammo Sovet Ittifoqi davrida hokimiyat dunyoviy boshqaruv tizimini yaratishga muvaffaq bo'ldi, unda boshqa dinlar qatori islom ham jamiyatdagi siyosiy hukmronlikni talab qila olmadi. Bu davrda O'zbekistondagi islom kommunistik hokimiyat unga yuklatgan roli bilan kifoyalanishga majbur edi. Bu davrda milliy o'z-o'zini anglashning o'sishidagi tabiiy tendensiya e'tiborga olinmadi. Ko'plab muqaddas milliy bayramlar: Navro'z, Ramazon hayiti, Qurbon hayiti va boshqalar taqiqlandi. Ular Islom sivilizatsiyasi boshlanganda islom ilmlari bayrog'ini ko'targan buyuk ajdodlarimiz nomlarini O'zbekiston xalqi xotirasidan o'chirishga harakat qildilar. Bu hurmatga sazovor bo'lgan ajdodlar orasida dunyoga tarqalgan ismlar bor edi. Bular, xususan, Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Ahmad bin Muhammad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi taniqli muhaddislar, ilohiyotchilar va taniqli madaniyat arboblari Ahmad Yassaviy, Imom at-Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abduxoliq G'ijduvoniy va boshqalar. Ularning ko'plab ilmiy ishlari va asarlari o'zbek islomshunosligining ta'sirchan qatlami bo'lib, dunyo hamjamiyati uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu allomalarni jahon madaniy merosining bir qismi sifatida o'rganish hozirgi davrda ilm-fanning muhim vazifalaridan biridir. «Xalqning madaniy qadriyatlarini, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Jahon ilm-fani uchun Movarounnahrda faoliyat olib borgan olimlar, ular jumlasida esa faqihlarning merosini ham o'rganish muhim ahamiyatga ega»<sup>20</sup>.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, mamlakat uchun iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa ko'plab masalalarni hal qilishda katta imkoniyatlar ochildi. Bunda din ham chetda turmadi. Mustaqillikka erishgandan buyon O'zbekiston o'zining boy madaniy merosini tiklash va yanada rivojlantirish yo'lini tanladi. Boy ilmiy va madaniy merosni o'rganishga, islom olamida mashhur bo'lgan ilohiyotchilar nomi bilan bog'liq muqaddas joylarni tiklash va obodonlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mustaqillik yillarida Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhonuddin Marg'inoniy kabi buyuk ilohiyotchilarning nomlari, ilmiy va madaniy merosi tiklandi.

Qadimgi davrlardan boshlab O'zbekiston islom olamining madaniy va ma'naviy markazi sifatida mashhur bo'lib kelgan. Islom sivilizatsiyasini shakllantirish va rivojlantirish, ushbu muqaddas dinning g'oyalarini tizimlashtirish va tarqatishda ajdodlarimiz – dunyoga mashhur ilohiyotchilar, faylasuflar va mutafakkirlarning xizmatlari buyukdir.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan o'zbek xalqining ma'naviy va madaniy qadriyatlarini tiklash, boy ilmiy hamda diniy merosni o'rganish, muqaddas ibodat joylarini rekonstruksiya qilish va obodonlashtirish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi. Shunday qilib mamlakatda har yili o'nlab konferensiyalar va seminarlar, davra suhbatlari va islom dini

<sup>20</sup> Мўминов А. Мовароуннахр ханафий фикҳи // Имом Бухорий сабоқлари. – Тошкент, 2001. – № 1. – Б. 88-91.

Date: 9<sup>th</sup> April-2026

rivojlanishining turli jihatlari bo'yicha muhokamalar bo'lib o'tmoqda, bu esa xorijiy davlatlarning ijtimoiy-siyosiy, akademik va tadqiqot doiralari o'rtasida keng rezonans keltirib chiqaradi.

Dunyoda radikal ekstremistik mafkura va xalqaro diniy ekstremizm va terrorizm tahdidi kuchayib borayotgan bir paytda biz O'zbekistonning yoshlarga islom dinining asl mohiyatini tushuntirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini mamnuniyat bilan qabul qilamiz. Shu nuqtai nazardan Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekistonda Xalqaro Islom akademiyasini, Samarqanddagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy markazini va Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish bo'yicha tashabbusi dolzarb ahamiyatga ega. Biz bilamizki, ushbu muassasalarning asosiy vazifasi islomiy qadriyatlarni targ'ib qilish, musulmon davlatlari o'rtasidagi bag'rikenglik, birdamlik, islom dini merosini hurmat qilish va asrab-avaylash, tinchlik, barqarorlik, konfessiyalar va millatlararo totuvlik, do'stlik, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro hurmat va hamkorlik, o'ziga xos din sifatida islom haqidagi bilimlarni keng tarqatishdir. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ba'zi arab-musulmon davlatlari bilan aloqalarning faollashishi, xususan, diniy sayyohlik oqimini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar O'zbekistonning mintaqamiz bilan yaqinlashishga samimiy qiziqishini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagilarga asosan aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki yillarida suveren demokratik davlat sifatida islom sivilizatsiyasini tiklash masalasida an'anaviy islomiy qadriyatlarni tiklash bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni ishlab chiqdi va amalga oshirdi. Din, avvalambor, jamiyatning ma'naviy hayotining bir sohasi bo'lib, o'ziga singib ketgan guruh, shaxs, umuminsoniy axloq me'yorlarini aks ettirdi, ularni odatiy xulq-atvor qoidalariga aylantirdi, madaniyatga sezilarli ta'sir ko'rsatdi va, ayniqsa, din (bu bizning islom – bizning otalarimiz va bobolarimizning dini misolida) odamlarning imonini mustahkamlash, ularni poklash va ko'tarish, ularga hayot sinovlari va muammolarni yengishda kuch berish, musibatlar, umumbashariy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish va avloddan avlodga yetkazishga o'z hissasini qo'shgan. Shuning uchun din insonning ishonchli hamrohi, uning hayotining bir qismidir. Shunday qilib islom madaniyatining zamonaviy qadriyatlarini organik idrok etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. O'zbekiston va musulmon dunyosi mamlakatlari o'rtasida faol madaniy almashinuv mavjud bo'lib unda, zamonaviy ko'p millatli qadriyatlarni anglash va o'tkazishga intilmoqda, ular orasida islom sivilizatsiyasi yutuqlari alohida o'rin tutadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи газетаси, 2017 йил 23 декабрь.
2. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. VI том – Б. 56.
3. Мўминов А. Мовароуннаҳр ҳанафий фикҳи // Имом Бухорий сабоқлари. – Тошкент, 2001. – № 1. – Б. 88-91.

